XALQ DEPUTATLARI URGUT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 1-mart VII-6-25-7-105-K/25 Urgut tumani

Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Budjet kodeksi”ning 126-moddasiga muvofiq, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil-4 fevraldagi 01/01-38/10-sonli xulosasiga asosan tuman mahalliy budjetining 2025-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘larini yo‘naltirish maqsadida xalq deputatlari Urgut tuman Kengashining yettinchi chaqiriq navbatdagi sessiyasi

QAROR QILADI:

1.Tuman mahalliy budjetining 2025-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan 3 916 587,0 *(uch milliard to‘qqiz yuz o‘n olti million besh yuz sakson yetti*)ming so‘m mablag‘lar 1-ilovaga muvofiq tadbirlar uchun ajratilsin.

2.Tuman hokimining o‘rinbosarlari hamda tuman tashkilotlarining rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini ta’minlasin.

3. Urgut tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Sh.To‘ychiyev), tuman G‘aznachilik xizmati bo‘limi (O‘.Ochilov) ajratilgan mablag‘lardan amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.

4.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Urgut tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (O.Azimurodov), tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Kamolov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi XUDAYKULOV SHERALI UMIRZAKOVICH

Xalq deputatlari Urgut tumani
Kengashining
2025-yil 1-martdagi
VII-6-25-7-105-K/25 -son qaroriga
1-ilova

№	Manba	Mablag‘ ajratil adigan tashkilotlar va hududlar nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag‘ miqdo ri (ming so‘m)
1	Tuman mahalliy budjetning 2025 yil 1 yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari	Tuman hokimligi	Jamoatchilik fikri asosida shakllanadigan tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida tuman hokimligi qoshida ochilgan “**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**”ga	1 627 043,0
			Tumandagi 4 ta sektor shtablarini zarur bo‘lgan idora ashyolari bilan ta’minlash hamda internet to‘lovlari uchun	50 000,0
			Tumandagi 4-sektor binosini ta’mirlash xarajatlariga olinadigan qurilish mollari sotib olish uchun	40 000,0
			Tuman hokimliklariga 2025-yilda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va axborot xavfsizligini ta’minlash "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi" tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlari uchun (12 oylik)	130 426,0
			Tumandagi Sanchiqul,Uzunsoy va Uzun mahallalarga yangi bino qurilish hamda Terak mahallasi binosini ko‘chirish va ta’mirlash xarajatlari uchun	600 000,0
			Tumandagi mahallalarga kuzatuv kameralari o‘rnatish uchun	200 000,0
			Tuman hokimligi arxiv xonasi va tuman hokimi xizmat xonasini qo‘riqlash xizmati uchun 2025-yil yanvar-dekabr oylari (12 oylik) uchun	44 823,0
			Tasviriy oyna ijodiy uyushmasi tomonidan tayyorlangan sitilolar, bannerlar va o‘rnatish xarajatlari uchun	100 000,0

			Tumandagi Kichik Torinjak, O‘ramas, Pochvon, Uzun va Xo‘ja Guzar mahallalar aholisi elektr-energiyasi ta’minotini yaxshilashga zarur bo‘ladigan jihozlar olish uchun	250 000,0
			"Nuroniy" jamg‘armasi Urgut tuman bo‘limi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni kelgusida kasb tanlash va xayot yo‘lini topishda muhim rol o‘ynaydigan "Uch avlod uchrashuvi" tadbirlarini yil davomida o‘tkazish xarajatlari uchun	100 000,0
			Tuman markazidagi Mergancha, Do‘stlik, Navbog‘ mahallalarida o‘tkaziladigan ommaviy tadbirlar, istirohat bog‘i, xiyobonlar, yirik hamda aholi gavjum ko‘chalar va bozorlarni 2025 yil fevral, mart oyi qo‘riqlash hizmati uchun	108 736,0
			Tuman hokimligi xizmat transport vositalarini ta’mirlash xarajatlari uchun	35 000,0
			Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay sharoit yaratish maqsadida tumandagi Navoiy shox ko‘chasini loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish hamda ekspertizadan o‘tkazish xarajatlari uchun	11 000,0
			Xalq qabulxonasi Urgut tuman bo‘limining binosini ta’mirlash xarajatlariga olinadigan qurilish mollari sotib olish uchun	28 000,0
		Tuman Madaniyat bo‘limi	Tuman hokimligi tavsiyasi bilan O‘zbekiston san’at va madaniyat institutida ta’lim olayotgan 5 nafar yoshlarning 2025 o‘quv yili uchun kontrakt shartnomasini to‘lash uchun	46 529,0
		Tuman tibbiyot birlashmasi	O‘ramas OShP binosini ta’mirlash xarajatlariga olinadigan qurilish mollari sotib olish uchun	300 000,0
		Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Tumandagi Mo‘minobod mahalla fuqarolar yig‘inini obodonlashtirishga sement olish uchun	100 000,0
			Tumandagi Mo‘minobod mahallasida obodonlashtirish ishlariga ohak olish uchun	25 000,0
		Tuman Suv yetkazib berish xizmati DM	2024-yil 27-dekabrda tushgan suv solig‘ining 40% Suv yetkazib berish xizmati DM tashkilotiga o‘tkazib berish uchun.	20 030,0

		Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	Tumandagi umumta’lim maktablari hamda Mo‘minobod mahallasida joylashgan 160-son umumta’lim maktabiga adabiy kitoblar sotib olish uchun	100 000,0
	Jami		**x**	**3 916 587,0**